

"YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTI STRATEGIYASI" NING
KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ISLOHOTLARINI AMALGA
OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Abdullayev Xurshid Shuhratovich

Toshkent yuridik universitetining ixtisoslashtirilgan filiali

1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining yorqin kelajak tomon bosayotgan qadamlari, amalga oshirayotgan islohotlari va yangilanishlar haqida ochib beriladi. Shu bilan birga "Yoshlar kelajak bunyodkorlari" maqoli ostida yoshlar uchun yaratilgan keng imkoniyatlar eshigi va xalq bilan muloqot davlat tinchligi, osoyishtaligi haqida fikrlar bildirilib o'tiladi. Yangi O'zbekistonda milliy huquqiy tizim, inson huquqlari, erkinliklari harakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi mazmunmohiyati, taraqqiyot strategiyasi etti ustuvor yo'nalishlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: taraqqiyot strategiyasi, harakatlar strategiyasi, barqaror rivojlanish, milliy iqtisodiyot

Kirish: Yangi O'zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. Ya'ni, "Inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – eng muhim qadriyat" degan tamoyil e'tirof etilmoqda. Eng asosiysi: Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan "davlat – jamiyat – inson" tamoyili "inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga o'zgartirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoev taqdim etgan Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar va eng muhim vazifalarning atroflicha tahlili shundan dalolat beradi. Avvalambor, loyihasi muhokama qilinayotgan asosiy tarixiy hujjatning nomi – "Yangi O'zbekiston tarraqiyot strategiyasi" deyiladi. Prezidentimiz inauguratsiya nutqida qayd etganidek, o'tgan saylov davomida davlatimiz rahbarining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli yangi kitobi birinchi navbatda Tadbirkorlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi elektorati o'rtaida o'ziga xos umumxalq muhokamasidan o'tkazildi. Yangi O'zbekiston strategiyasida 2017 yil fevralida Prezidentimizning Farmoni bilan tasdiqlanib, 5 yil davomida hayotga izchil tatbiq etilgan Harakatlar strategiyasi doirasida erishilgan yutuqlar, xususan, asosiy natijalarga oid dalil va raqamlar ham keltirilgan. Bitta raqamga e'tibor qarataylik: Harakatlar strategiyasini ijro etish uchun 300 dan ortiq qonun va kodeks, Prezidentimizning 4 mingdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilingan. Shu tariqa Harakatlar strategiyasi yakuniga kelib, Yangi O'zbekiston poydevorining huquqiy asoslari yaratildi.

Yangi hujjat – Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi endi Yangi O‘zbekistonning poydevorini tiklash va binosini qurishga qaratilgan. Bu buyuk buniyodkorlik jarayoni 2026 yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va yilma-yil amalga oshirib boriladi.Jamoatchilik muhokamalari shu yil 15 yanvarda yakunlanadigan mazkur Taraqqiyot strategiyasi zamirida qanday ma’no-mohiyat mujassam, degan savol tug‘ilishi tabiiy.

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, degan nomning mazmun-mohiyatiga muxtasar to‘xtalamiz. Zero, bu nomning kelib chiqishi, fikrimizcha, bir qator muhim omillarga borib taqaladi.

Birinchi omil: ushbu nom Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi ekanini anglatadi. Agar Harakatlar strategiyasida 5 ta ustuvor yo‘nalish belgilab olingan bo‘lsa, Taraqqiyot strategiyasida ham ushbu ustuvor yo‘nalishlar davomiyligi saqlab qolingga. Shu bilan bir qatorda, taraqqiyot o‘zgarishlarining yangi tarixiy bosqichda davom ettirilishi ko‘zda tutilgan holda, Taraqqiyot strategiyasiga 2 ta yangi ustuvor yo‘nalish qo‘shtiyapti. Bulardan biri – ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi – O‘zbekistonning dunyoda yuz berayotgan global muammolarga munosabati negizida belgilangan yangi ustuvor yo‘nalishdir.Shunday qilib, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida quyidagi yettita ustuvor yo‘nalish nazarda tutilgan:

birinchi ustuvor yo‘nalish – inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

ikkinchi ustuvor yo‘nalish – mamlakatimizdaadolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

uchinchi ustuvor yo‘nalish – milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o‘sish sur’atlarini zamon talablari darajasida ta’minalash;

to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish – adolatlari ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

beshinchi ustuvor yo‘nalish – ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;

oltinchi ustuvor yo‘nalish – umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;

yettinchi ustuvor yo‘nalish – mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish.

Ikkinchi omil: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili ilgari surilayotgani beziz emas. Chunki, avvalo, Harakatlar strategiyasidagi har bir yo‘nalishni taraqqiyotning yangi bosqichida mantiqiy va izchil asosda rivojlantirish hamda yangi ustuvor yo‘nalishlarda muhim natijalarga erishish ko‘zda tutilmoqda.

Taraqqiyot strategiyasida asosiy e'tibor, bir tomondan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir qonunlar, kodekslar, konsepsiya va dasturlar qabul qilinishiga qaratilgan.

Ikkinci tomondan, unda qonun ustuvorligini taminlash, konstitutsiyaviy islohotni hayotga izchil tatbiq etish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, manaviyatni rivojlantirish, shuningdek, global muammolarga O'zbekistonning munosabati, xavfsizlik va tashqi siyosat borasidagi muhim vazifalar qamrab olingan.

Eng asosiysi, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi 7 ustuvor yo'naliشning bosh g'oyasi – inson qadrini ta'minlashdir. Chunki, Prezidentimizning saylovoldi dasturidagi asosiy g'oya ham "Inson qadri uchun" tamoyili edi.

Uchinchi omil: inson qadrini joyiga qo'yishni qonuniy va tashkiliy-huquqiy yo'llar bilan hayotimizning barcha sohalarida milliy, mintaqaviy va xalqaro hamkorlik darajalarida qanday qilib amalga oshirish kerak? Taraqqiyot strategiyasida bu dolzarb savolga juda ko'plab aniq maqsadlarga qaratilgan amaliy javoblar bor.

Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor yo'naliши bo'yicha hozirgi kunga qadar 26 ta konsepsiya va bir qator dasturlar qabul qilingan bo'lsa, kelgusida Taraqqiyot strategiyasi doirasida 13 ta kodeks, 12 ta qonun, ya'ni har bir ustuvor yo'naliшda zarur qonun hujjatlari qabul qilinishi ko'zda tutilgan.

Jumladan, Tadbirkorlik kodeksining ishlab chiqilishi – yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va tadbirkorlar huquqlarini to'liq himoya qilishning mustahkam qonuniy asosiga aylanadi. Bo'lajak Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi kodeksda fuqarolik jamiyatining huquqiy mezonlari o'z aksini topadi.

Axborot kodeksi – shu vaqtga qadar amal qilayotgan ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar faoliyati, axborot va so'z erkinligiga bag'ishlangan o'ndan ortiq qonun kodifikatsiya qilingan yagona va yaxlit qonun hujjati sifatida qabul qilinishining natijasi bo'ladi.

To'rtinchchi omil: Yangi O'zbekiston tarraqqiyot strategiyasining nafaqat nomlanishi, ayni chog'da unda belgilangan ustuvor yo'naliшlar va muhim vazifalar ham milliy yoki mintaqaviy miqyosdagina emas, balki global darajada ulkan ahamiyatga molik xalqaro hujjatlar bilan uyg'un va hamohangdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2015-2030 yillarda Barqaror taraqqiyot maqsadlarini elon qilgan. Bu xalqaro hujjat o'zbek tilida "Barqaror taraqqiyot maqsadlari" yoki "Barqaror rivojlanish maqsadlari", degan nomlar bilan sizu bizga yaxshi tanish. Dastlab Harakatlar strategiyasida, endilikda esa Taraqqiyot strategiyasida ham O'zbekiston bajarishni o'z zimmasiga olgan BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarini mamlakatimiz hayotiga tatbiq etishning aniq taktika va strategiyalari belgilab berilmoqda. Boshqacha aytganda, O'zbekiston tashqi xalqaro munosabatlarning teng huquqli a'zosi sifatida o'zining BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlari bilan hamohang holda rivojlanishi, bu

boradagi o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati, yanada muhim, ibratli tajribasini butun dunyoga ko‘rsata oldi. O‘z navbatida, Yangi O‘zbekiston tarraqqiyot strategiyasi ushbu muhim taraqqiypravar jarayon uzlusiz davom etayotganidan dalolat beradi. Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat tomonidan Taraqqiyot huquqi to‘g‘risidagi konvensiya loyihasi ishlab chiqilyapti. Qolaversa, 35 yildan buyon Taraqqiyot huquqi to‘g‘risidagi deklaratsiya amal qilmoqda. Shu ma’noda, O‘zbekiston Prezidenti taqdim etayotgan Taraqqiyot strategiyasi xalqaro hamjamiyatning rivojlanish tendensiyalariga, butun dunyoning taraqqiyot trendlariga to‘la mos keladi. Shuni ham aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma qarori bilan Barqaror taraqqiyot maqsadlarini amalga oshirish bo‘yicha konstitutsiyaviy parlament komissiyasi tuzilgan. Parlament komissiyasi Barqaror taraqqiyot maqsadlari ijro etilishini parlament nazorati yo‘li bilan ta’minlamoqda. Binobarin, Taraqqiyot strategiyasini amalda tatbiq etishda ham parlamentning roliga alohida e’tibor qaratilayotgani juda muhim. Jamoatchilik muhokamalari yakunlari bo‘yicha kelib tushgan taklif va tavsiyalar asosida maromiga yetkazilganidan so‘ng davlatimiz rahbari tomonidan imzolanishi kutilayotgan “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon asosida:

birinchidan, Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi;

ikkinchidan, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”;

uchinchidan, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha milliy komissiya tarkibi tasdiqlanadi.

Xususan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi loyihasining 11-maqsadida “Xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini takomillashtirish” muhim vazifa etib belgilanmoqda. Xalq bilan ochiq muloqotning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish, davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayonini raqamlashtirish, murojaatlarni tezkor va sifatli ko‘rib chiqilishini ta’minalash ko‘zda tutilmoqda. Eng asosiysi, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” loyihasida “Davlat xalqqa xizmat ko‘rsatishi shart” g‘oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi “Xalqchil davlat” milliy dasturini ishlab chiqish vazifasi zimmamizga yuklangani bejiz emas. Ushbu Dastur loyihasi, ilg‘or xorijiy davlatlarning tajribasini inobatga olgan holda, belgilangan muddatda ishlab chiqiladi va taqdim etiladi. “Yo‘l xaritasi” loyihasida yana bir muhim vazifa – Xalq qabulxonalarining huquqiy maqomini takomillashtirish masalasi uchun mas’ul etib belgilanganmiz. Xalq qabulxonalari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish va ularning davlat

boshqaruvi tizimidagi maqomini mustahkamlashga qaratilgan Konstitutsiyaviy qonunni qabul qilish bo'yicha ishlarni allaqachon boshlab yubordik.Xalq bilan bevosita muloqot qilish, yurtdoshlarimizning dardu tashvishlari, muammolarini ijobiy hal etish bo'yicha mutlaqo yangi demokratik tizim – Xalq qabulxonalar o'tgan besh yilda faoliyat yuritib kelmoqda va o'zini oqladi.Bundan tashqari barcha davlat organlari faoliyatida "xalq dardiga kuloq solish", muammolarni joyida hal etish va xalqni rozi qilish bo'yicha samarali ishlar qilinmoqda.Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi loyihasining 12-maqсади "Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish" deb nomlangani bejiz emas.Zero, bu o'rinda ommaviy axborot vositalarining roli va jurnalistlarning kasbiy faoliyati himoyasini yanada kuchaytirish, odamlarni qiyayotgan muammolar hamda islohotlarning ijrosi ahvolini o'rganishda ijod ahli mehnatidan samarali foydalanish ko'zda tutilmoqda. Bularning barchasi, o'z navbatida, yurtimizda ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga xizmat qiladi.Ma'lumki, Harakatlar strategiyasi doirasida yurtimizda ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirish borasidagi o'rni va ahamiyati qonunchilik negizida tubdan kuchaytirilgandi. Taraqqiyot strategiyasida ana shu tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirish ko'zda tutilgani yangi davr talabidir

Shu nuqtai nazardan, Taraqqiyot strategiyasi loyihasining 83-maqсади "Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash" deb atalgani hamda unda bir qator muhim vazifalar ko'zda tutilgani ham katta hamiyatga ega. Bu o'rinda axborot sohasini tartibga solishga qaratilgan mavjud qonunlar O'zbekiston Respublikasi Axborot kodeksi shaklida unifikatsiya qilinishi haqida so'z bormoqda. Shuningdek, fuqarolarning axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish madaniyati oshiriladi.Turli yosh toifasi uchun mo'ljallangan o'quv kurslari hamda onlayn dasturlar ommalashtiriladi. Xalq ta'limi va professional ta'lim tizimining tegishli darsliklariga media savodxonlik bo'yicha mavzular joriy qilinadi.Shaxsiy va sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni internet tarmog'ida oshkor qilish bilan bog'liq daxlsizlik huquqlari buzilishining oldini olish ham ko'zda tutilgan. Bunda Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning daxlsizlik huquqlari bilan bog'liq moddalariga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasi tayyorlanadi.O'z navbatida, "Yo'l xaritasi" 46-bandida qynoqlarning oldini olish bo'yicha preventiv mexanizmlarni takomillashtirish haqida so'z boradi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi ushbu vazifaning asosiy ijrochilaridan biridir.Bunda, birinchidan, qynoqlarning oldini olish bo'yicha tegishli xalqaro hujjalarni ratifikatsiya qilish masalasini ko'rib chiqish taqozo etiladi. Ikkinchidan, qynoqlarning oldini olish bo'yicha preventiv milliy mexanizmning qonuniy asoslarni rivojlantirish kerak bo'ladi. Hamkor tashkilotlar

bilan har ikki masala bo'yicha, umuman, Taraqqiyot strategiyasi ijrosi doirasida o'zaro hamjihatlikda faol ish olib boramiz.

Taraqqiyot strategiyasi loyihasining 19-maqсади – advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirishdan iborat. Bunda:advokatura institutini to'laqonli o'z-o'zini boshqarish tizimiga o'tkazish, Advokatlar palatasi boshqaruv organlarining advokatlar hamjamiyati oldidagi hisobdorligini kuchaytirish, tizimga yosh malakali kadrlarni jalb qilish;advokatlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy va samarali mexanizmlari va institutsional asoslarini shakllantirish;advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog'ozbozlikka chek qo'yish, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjatlar almashinuvini yo'lga qo'yish;bepul huquqiy yordam ko'rsatish ko'lmini kengaytirish, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatharidan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va "yagona darcha" tamoyili asosida foydalanishni ta'minlash ko'zda tutilmoqda.Yana bir muhim jihat: Loyihaning 90-maqсадида BMT organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatni kuchaytirish haqida so'z boradi.Ya'ni, O'zbekistonni BMT tuzilmalari orqali dunyo hamjamiyatiga keng tanitish; O'zbekiston rahbariyatining BMT doirasidagi tashabbuslarini amalga oshirishni ta'minlash; BMT va uning muassasalari bilan iqtisodiy-moliyaviy va konsultativ hamkorlikni rivojlantirish bunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan madaniy-gumanitar hamkorlikni jadallashtirish; BMTning "Inson huquqlari yo'lida harakatga da'vat" tashabbusini ilgari surish uchun barcha sheriklar bilan yaqin hamkorlikni davom ettirish istiqbollari ko'rsatib berilmoqda. Muxtasar aytganda, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi loyihasi negizida bir qancha yangi dasturlar, yangi konsepsiylar, yangi qonun hujjatlari qabul qilinishi nazarda tutilmoqda. Bu bilan mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik rivojlanishining keyingi bosqichida amalga oshiriladigan islohotlar keng qamrab olinmoqda.

Shunday ekan, Taraqqiyot strategiyasining tasdiqlanishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish hamda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali inson qadrini ulug'lashga qaratilgan ulkan maqsad va vazifalarimizga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.yuz.uz/uz/news 15-dekabr 2020-yil Bahor Xidirova
- 2.uzavtoyul/uz Avtomobil Yo'llar Qo'mitasi 8-fevral 2017-yil
- 3.New Uzbekistan University kun.uz 23.06.2021 yil
- 4.t.me/alisher_sadullayev rasmiy kanali